

# Nyu-York shtati bitirish talablari:

## Qo'shimcha ko'rsatkichlar

Nyu York shtati diplomini (NYSH) olish uchun talabalar kredit va imtihon talablarini bajarishlari kerak. [Nyu York shtatining bitiruv talablari](#): Nyu York shtati joriy Diplom Talablari tushunchasi quyidagilarni o'z ichiga oladi. Bu manba talabalar uchun qo'shimcha bitiruv ko'rsatkichlarini aniqlashtiradi. Bu ko'rsatkichlar diplom va unga oid bo'lmagan ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

### Apellyatsiya

Barcha talabalar quyidagi talablarni bajarsa, Regents imtihonini pastroq darajaga topshirishi mumkin:

|   |   |
|---|---|
| 2x  | Talabalar Regents imtihonini apellyatsiya bilan ikki marta topshirgan.                                    |
| ✓   | Murojaat bo'yicha ko'rsatilgan ro'yxatda kamida bitta bahoga ega.   |
|   | Talaba kerakli fandan maktab tomonidan ta'minlangan akademik yordamni olgan.                              |
|   | Talaba kerakli kursni topshirgan.   |
|  | Kerakli fan bo'yicha o'qituvchiga o'qituvchi yoki kafedra mudiri tomonidan apellyatsiyaga tavsiya etilsa. |

Qo'shimcha ma'lumotlarni [Appellyatsiya](#), [xafvsizlik tarmog'i](#) va [boshqarish talablari](#) veb-sahifasida topish mumkin.



### Barcha talabalar uchun ko'rsatkichlar

Apellyatsiya ko'rsatkichlari (Regent yoki mahalliy diplom)

Talabalar Regent diplomi uchun imtihon talablarini bir marta apellyatsiya qilingan Regent imtihoni bali bilan bajara oladi. Bu ballar topshirilishi zarur bo'lgan balldan 5 pog'ona past (60-64) bo'lmisligi kerak. Aytilgan barcha Regent imtihonlarining ballari 65 yoki undan yuqori bo'lishi kerak. Talabalar Mahalliy diplom uchun imtihon talablarini ikki marta apellyatsiya qilingan Regent imtihoni bali bilan bajara oladi. Bu ballar topshirilishi zarur bo'lgan balldan 5 pog'ona past bo'lmisligi kerak (60-64). Aytilgan barcha Regent imtihonlari ballari 65 yoki undan yuqori bo'lishi kerak.



Chiqish mandatlarini (diplomga oid bo'lmagan ko'rsatkichlar)

Diplom talablarini bajara olmagan talabalar yuqori o'rta maktabni CDOS yakuniy mandati (shahodatnomasi) bilan bitiradi. Barcha talabalar CDOS yakuniy mandatining talablari asosida bitirishi shart. Alohida CDOS yakuniy mandati (shahodatnomasi) mavqe'i diplom bilan teng emas. Bu ko'rsatkichlar Qobiliyat va natijalar yakuniy mandatida (shahodatnomasi) ko'rsatilgan nogironligi bor talabalar uchun tatbiq qilinmaydi.

### Ingliz tili o'rganuvchilari uchun ko'rsatkichlar

Apellyatsiya ko'rsatkichlari (Mahalliy diplom)

Ba'zi Ingliz tili o'rganuvchilari imtihon talablarini bajarish uchun apellyatsiya qilingan 55-59 balli Ingliz Regent imtihoni natijasidan foydalanishlari mumkin. Ingliz Regent imtihonini ikkinchi marta topshirishda Qabul qilinish uchun talabalar 9-sinf yoki yuqori bo'lishlari va Ingliz tili o'rganuvchisi deb tavsiflanishi zarur. Bu ko'rsatkichdan foydalanuvchi talabalar mahalliy diplom oladi.

Eslatma: bu ko'rsatkichdan foydalanuvchi talabalar qo'shimcha Regent imtihonini topshirishi mumkin. Bu ballar topshirilishi zarur bo'lgan balldan 5 pog'ona past bo'lmisligi kerak (60-64).

Kredit ko'rsatkichlari

Ingliz tili o'rganuvchilari maxsus ENL va Ikki tilli ta'lim dasturlarini tugallash uchun fakultativ, asosiy materiallar va LOTE kreditiga ega bo'lishi mumkin. Qo'shimcha ma'lumotlar uchun [Ingliz tili yangi til sifatida \(ENL\) dars jadvallari bo'limlari](#) va [Ikki tilli ta'lim dasturlari](#) va [LOTE SAVOL-JAVOBLAR](#) ilovalarida berilgan.

## Nogiron talabalar uchun ko'rsatkichlar

### Quyida topshirish xavfsizlik tarmog'i (mahalliy diplom)

Quyida topshirish xavfsizlik tarmog'i nogiron talabalarga mahalliy diplom uchun test topshirish talablarini bajarish uchun imkon beradi. Tanlangan talabalar kerakli Regent imtihonlarining bir yoki bir qanchasida 55-64 oralig'ida ball olishi kerak.

### Apellyatsiya ko'rsatkichlari (Mahalliy diplom)

Quyida topshirish xavfsizlik tarmog'i tanlovidan foydalanuvchi talabalar ikkitagacha Regent imtihon balini olish ko'rsatkichiga ham ega. Bu ballar 52-54 orasida bo'lishi kerak. Bu talabalar apellyatsiya uchun tanlana olish ko'rsatkichlariga ham ega bo'lishi shart.

### Kompensatsiya xavfsizlik tarmog'i (Mahalliy diplom)

Kompensatsiya xavfsizlik tarmog'i nogiron talabalarga kerakli Regent imtihonida 45-54 ball olgan holda boshqa kerakli Regent imtihonida 65 va undan yuqori ball bilan kompensatsiya qilishga imkon beradi.

### LOTE kreditiga istisno

Agar ularning **IEP sida ko'rsatilgan bo'lsa**, LOTE kreditidaning 1-talabidan ozod qilinishlari mumkin. Ular bitirishlari uchun 22 bo'lim yiqqan bo'lishlari shart. Oxirgi IEPda LOTE istisnosiga tushgan 9-12 sinflarga qayta kiritilmagan talabalar ham tanlana oladilar. LOTE kreditidan cheklovidagi Regent diplomiga talabgor kengaytirilgan belgilanishga ega talaba yuqori natijali diplom uchun Imtihon talablari bo'yicha San'at yoki CTE ning 5-bo'limini tugallashi shart emas.



### Boshqarish talablari (Mahalliy diplom)

Mahalliy diplom uchun imtihon talablarini bajara olmaydigan talabalar Boshqarish talablari ko'rsatkichlarini ishlatishlari mumkin. Talabalar qabul qilinish talablarini bajarishlari shart:

|   |  |
|---|--|
|  | Shaxsiy ta'lim dasturiga (IEP) ega va maxsus ta'lim dasturi va xizmatlarini olayotgan bo'lishi.                |
|  | Talaba mos Regents darajasi kurslarini topshirgan va qatnashgan bo'lishi.                                      |
|  | Talaba mos Regents darajasi kurslarida faol qatnashgan bo'lishi.   |
|  | Diplom kreditining mos 22 bo'limlarini yiqqan bo'lishi.  |
|  | Mahalliy diplom uchun Boshqaruvchiga talabaning ota-onasi yoki vasiylari tomonidan qabul qilingan yozma ariza. |

Eslatma: boshqaruvchi talabaning diplom talablariga loyiqligi haqidagi qaror qabul qiladi. NYSH Ta'lim Boshqarmasi Boshqaruvchi talablari ko'rsatkichlarini tasdiqlamaydi.

### Chiqish mandati (diplomga oid bo'lmagan ko'rsatkichlar)

Nyu York shtati muqobil baholash (NYSAA) tizimi bilan sinovdan o'tkazilgan Nyu York shtatidagi talabalar Qobiliyat va Natijalar yakuniy shahodatnomasi bilan yuqori o'rta maktabni bitira oladi.

### Ota-onalar uchun manbalar

- [Appeals, Safety Nets, and Superintendent Determination](#)
- [Exiting Credentials](#)
- [General Education and Diploma Requirements](#)
- [New York State Diploma/Credential Requirements](#)

### Savollaringiz bormi?

O'quv rejaları va ko'rsatmalar ofisiga [emscgradreq@nysed.gov](mailto:emscgradreq@nysed.gov) yoki (518) 474-5922 raqami orqali bog'laning.